

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

FILOLOGIYA MASALALARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti
Magistratura bo'limi tomonidan universitet magistrantlarining ilmiy salohiya-
tini yanada oshirish maqsadida **“filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar
nigohida”** mavzusida tashkil etilgan ilmiy-nazariy anjuman materiallari*

“TAMADDUN NASHR”
TOSHKENT – 2022

UO'K 80(08)

KBK 80

F 60

Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida [Matn]: to'plam / M. Suyunova [va boshq.]. – Toshkent: TAMADDUN NASHR, 2022. 608 b.

Loyiha tashkilotchisi

Rauf Yarqulov

Magistratura bo'lim boshlig'i t.f.n. professor

To'plab nashrga tayyorlovchi

Malika Suyunova

Ruzmetov Shahzodbek

Murodova Gavharoy

Xudoynazarova Nodira

Voxidova Muxlisa

Tahrir hay'ati

f.f.d., professor B. Karimov, f.f.d., professor N. Jabborov,
f.f.d., professor Z. Xolmanova, f.f.d., professor B. Abdushukurov,
f.f.d., professor L. Raupova, f.f.d., dotsent U. Jo'raqulov,
f.f.d., professor R. Zohidov, f.f.d., dotsent Z. Teshaboyeva,
f.f.d., dotsent M. Abdullayeva, f.f.d. Sh. Abdiraimov

Taqrizchilar

Samixon Ashirbayev

ToshDO`TAU «O'zbek tilshunosligi» kafedrasini mudiri, f.f.d., professor

Nodir Jo'raqo'ziyev

ToshDO`TAU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor v.v.b f.f.n., dotsent

Ushbu to'plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti Magistratura bo'limi tomonidan universitet magistrantlarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida "FILOLOGIYA MASALALARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA" mavzusida tashkil etilgan ilmiy-nazariy anjuman materiallari yig'ilgan bo'lib, ushbu konferensiyaning asosiy maqsadi yangilikka intilayotgan yosh tadqiqotchilarning til, adabiyot, folklor, tarjima, dialektologiya, matnshunoslik, o'zbek tili va adabiyotini o'qitish borasidagi innovatsion yondashuvlar, fanning yangi qirralarini kashfetishdir. Bu anjuman filologiya sohasiga oid ilm yo'lidagi ulkan qadamlarda asosiy zinapoya bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda.

Konferensiya 8 ta sho'bada tashkil etilgan bo'lib, bular:


- Mumtoz adabiyotning nazariy masalalari;
- zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining nazariy masalalari;
- jahon adabiyoti, tahlil va talqin muammolari;
- badiiy matn tahlili va talqin muammolari;
- nazariy va amaliy tilshunoslik masalalari;
- o'zbek tili va adabiyotida o'qitishning zamonaviy usullari;
- tarjima muammolari;
- folklorshunoslik va dialektologiya masalalari deb nomlanadi.

Yosh olimlar tomonidan tashkil etilayotgan ilmiy anjumanda filologiya va adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb masalalar va sohaga oid muammolarning yangicha yechimlari xususida so'z boradi.

ISBN 978-9943-8241-5-7

© "TAMADDUN NASHR" nashriyoti, 2022

I BOB
MUMTOZ ADABIYOTNING NAZARIY
MASALALARI



To conclude, since the role of culture in translation is very important, every interpreter should know not only the language but also the language of the culture. Due to the presence of expressions, special words, and body language that are understandable to the culture of each nation, the interpreter can conduct the translation process accurately and fluently. So we can see the magnitude role of culture in the process of simultaneous translation. In its turns, every simultaneous interpreter must pay great attention to the importance of culture in the process of interpreting.

References:

1. A.E. MAMATOV. Zamonaviy lingvistika. Noshir nashiryoti, 2019. - B 71-102
2. Ю.С. Степанов Методика исследования концепта (Bloom 2000).
3. "Humboldt". Collins English Dictionary. HarperCollins. Retrieved 11 July 2019
4. O.Muminov "A guide to simultaneous translation", Toshkent 2005
<https://articlekz.com>
<https://doclecture.net>
<https://studbooks.net>
<https://www.daytranslations.com>

Amirqulov Dilshod,
Sinxron tajima mutaxassisligi
1-kurs magistranti

LITSEY, KASB-HUNAR MAKTABLARI, KOLLEJLAR VA TEXNIKUMLARDA SINXRON TARJIMONLAR TAYYORLASH KURSLARNI TASHKIL ETISH DOLZARB MASALA

Annotatsiya: Ushbu maqolada litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda sinxron tarjimonlar tayyorlash kurslarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-siyosiy jihatlari, shuningdek bu borada yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar va ulardan unimli foydalanish xususida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, tarjimonlarga kerak bo'ladigan turli xil metod va usullar, ularning amaliy ahamiyati haqida ham ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlari: deavtomatizasiya, porosess, konferensiya, kommunikativ, artikulyasion, ratsional

Abstract: This article discusses the specifics, socio-political aspects for preparing the simulation translated for the lyceums, colleges and profession-

al technical schools. The wide range of opportunities for the organization of courses, as well as the young people in this regard. In addition, translators also provide information on the various methods and methods that need, their practical significance.

Key words: deavtomatization, porosess, conference, communicative, articulatory, rational

O'quvchi – yoshlarda ijobiy sifatlarni tarbiyalashda umumiy o'rta ta'lim bilan bir qatorda litsey, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlarning alohida o'rni bor. Shu bois bunday o'quv maskanlarida maxsus yo'nalishlarini o'zlashtirish hozirgi zamon talabi. Bunda chet el tajribalari, mahalliy sharoit va milliy an'analar, qadriyatlar va shu kabilardan kelib chiqqan holda belgilash zaruriyati yuzaga keldi. Respublikamizda xalq ta'limi sohasida olib borilayotgan islohotlar, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maxsus yo'nalishlardagi ta'lim turlarini tashkil etishga ham imkon yaratadi. [1:16] Xususan, litsey, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlar ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida ularning moddiy texnika bazasini tubdan yaxshilash va o'quv, laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanishi maxsus yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shunday ekan maxsus yo'nalishdagi ta'lim jarayonini uning maqsadi va vazifalaridan, mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda quyidagi variantlarda tashkil etish mumkin:

1. Litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda sinxron tarjimonlar tayyorlash va maxsus yo'nalishlardagi ta'lim tizimini ingliz tilida tashkil etish.

Bunda litsey, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlar o'zining imkoniyati, shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda «bir yo'nalishdagi» ya'ni bitta sohani yoki «turli yo'nalishdagi», ko'pgina sohani qamrab olgan ta'lim jarayonini tashkil etadi.

Litsey, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlar ma'lum bir yo'nalishga moslashmasdan, ayrim o'quv predmetlarini ingliz tilida o'qitishga ajratiladigan soatlarni ko'paytirish orqali ham ko'pgina ijobiy natijalarga erishishi mumkin. Bu o'z navbatida ingliz tili tarjimonlar tugaraklarini alohida guruhlar tarzida yoki individual yo'nalish sifatida faoliyat ko'rsatishiga imkon beradi. Natijada yuqori kurslarda o'quvchilarning qiziqishlari va ota-onalarning xohish-istaklari asosida ingliz tili tugaraklari, guruhlar, kurslar tashkil etish va unda o'quvchilar

o'zlari tanlagan kasbga oid predmetlarni ingliz tilida puxtaroq o'zlashtirishlari mumkin.

2. O'zaro bog'liq tashkilot.

Bunda litsey, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlar o'quvchilarni tarjimonlikka tayyorlashda ayrim maqsad va vazifalar ko'zlangan holda umumiy o'rta ta'lim resurslaridan samarali foydalanish nazarda tutiladi. Bu asosan ikki turda tashkil etilishi mumkin.

Birinchi variantda bir nechta kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlar yaxshi moddiy- texnika bazasi va mutaxassislariga ega bo'lgan muassasa atrofiga jipslashishlari mumkin. Mazkur muassasalar guyo «Ta'lim markazi» vazifasini o'taydi. Bu markazlarga "O'zbekiston yoshlar ittifoqi", "Barkamol avlod bolalar ijodiy markazi", "Kamalak bolalar tashkiloti" kabilar misol bo'la oladi.

Bu usulning yana bir yaxshi tomoni shundaki, litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda umumiy xarakterdagi ta'lim sohasi amalga oshirilsa, bevosita maxsus yo'nalishdagi ta'lim, mazkur «Ta'lim markazi»da amalga oshiriladi.

Ikkinchi variantda sinfdan va o'qishdan tashqari ta'lim muassasalari ya'ni tugaraklar qo'shimcha ravishda oliy, o'rta va o'rta maxsus yo'nalishda ta'lim beruvchi muassasalar bilan hamkorlik qilgan holda o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirishlari mumkin. Bunday hamkorliklar keyinchalik o'quvchilarni yetuk tarjimon bo'lishda yaqindan yordam beradi.

Sinfdan va o'qishdan tashqari ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda Davlat Ta'lim Standarti (DTS)ga amal qilish talab etiladi. Chunki, o'qishdan ingliz tilini o'qitish ma'lum ma'noda DTSni takomillashtirishga xizmat qiladi[3]. Shu bois ingliz tilini o'qitish o'quvchilarning bilim darajalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Litsey hamda kasb-hunar kollejdari tashqari ingliz tilini o'qitishning uzviyligi ta'lim sifatini yagona nazorat tizimi asosida tekshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. O'z-o'zidan sinfdan va o'qishdan tashqari ta'lim maskanlarida ham ana shu umumiy tartibga javob beradigan nazorat tizimi mavjud bo'lishi talab etiladi. Demak, maxsus yo'nalishda ta'lim beruvchi muassasalar shuningdek tarjimonlar tayyorlash uchun ham ingliz tilini o'qitishda DTS ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Shunga ko'ra sinfdan va o'qishdan tashqari ta'lim muassasalarida ham ingliz tilidan o'quvchilar bilimni tekshirishga bo'lgan davlat talabi bir xil bo'lishiga e'tiborni qaratish kerak. Litsey, kasb-hunar maktablari,

kollejlarda va texnikumlarda tarjimonlar uchun ingliz tili tugaraklarning o'ziga xos mavqei va hayotda tutgan o'rni belgilab berilmas ekan, bu ta'lim-tarbiya sohasining kelajagi yo'q bo'ladi[5:31].

Litsey, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikum o'quvchilarini tarjimon bo'lishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va yordamlashish g'oyasi ular oldiga kelajakda tarjimonlik kasb turini tanlashlariga imkoniyat yaratish va bu borada yordam kursatishdir. Bunday ishni amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari ko'ra sinfda va o'qishdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarning yoshi va qiziqishlariga mos keladigan sohalar bo'yicha qisqa mudaatli ingliz tili kurslar tashkil etish va ularda tarjimonlik kasbiga oid aniq ko'rsatmalar va yo'llanmalar ingliz tilida berish muhim talablardan biridir.

Misol uchun hozirgi paytda ingliz tilini o'qitish amalyoti shuni ko'rsatadiki, nutqda to'g'ri talaffuz qilish normalariga amal qilmaslik, nutqning tinglovchi uchun tushunarli bo'lmasligiga olib keladi va so'zning asl ma'nosini o'zgartirib yuborishga sabab bo'lib, talay noqulayliklar keltirib chiqaradi. Shunday hollar ham bo'ladiki o'quvchi o'rganyotgan tilning gramatik so'z qurulishini o'zlashtirib va minimum lug'at boyligiga ega bo'lgach, ingliz tilida jumlar tuza boshlaydi, hamda matnlarni tarjima qilaolishiga ishonch hosil qilgach gramatika – orfoepiya normalariga amal qilish haqida unutib yuboradi.

Ingliz tilida gapirish va tarjima qilish jarayonining boshlang'ich bosqichida o'rganilayotgan tilni o'z ona tilidek talaffuz qilaolmaslik ko'pchilik o'quvchilarga xos narsa. Bunday xollarga o'qituvchi tomonidan chek qo'yilishi darkor va ularning e'tiborini muayyan fonetik va gramatik xodisalarga jalb etish hamda ular talaffuzida yuz berayotgan xatolarni deavtomatizasiya bo'lmasligi uchun ko'proq fonetik shakllar ustida ishlash maqsadga muvoffiqdir. Ya'ni ingliz tilini o'rganish va tarjima qilish porosessida ular o'z diqqatini boshqarilayotgan nutq organlariga jalb qilmog'i va butun vujudi bilan har bir fonemani aynan risoladagidek talaffuz etishga intilmog'i darkor.

Hozirgi kunda yurtimizda tarjimonlar yetishmasligi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ayniqsa sinxron tarjimonlar uchun o'zbek tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish metodlari va nazariyalari ustida yetarli darajada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. Bilamizki sinxron tarjima va ketma-ket tarjima konferensiya va boshqa tadbirlarda foydalaniladi. Tarjimon notiqning nima qilayotganiga emas, nima so'zlayotganiga ahamiyat beradi. Tarjimon va tin-

glovchilar uchun maxsus jihozlar mavjud. Sinxron tarjima bir qancha darajalardan iborat bo'lib, ularning har birining bir necha pog'onalari bor. Ulardan eng muhimlari: moslashtirish, muqobilini izlab topish, qaror toptirish va ijro etish. Agar asliyat tilida gapirish ohangi sekinroq bo'lsa, tarjima qilinayotgan tilda ham shu ohang saqlanishi lozim. Ketma-ket tarjimada tarjimon so'zlovchini keyingi so'zini kutib turishi lozim. Bu juda qulay va oddiy tarjima usulidir. Yosh tarjimonlar uchun tarjima jarayonida lug'atsiz ishlash qiyin kechadi. Hech bir yosh tarjimon lug'atsiz muhim bir matnni tarjima qila olmaydi. Mohir tarjimon uning ma'nosini aytib bera oladi, biroq izohsiz to'liq tarjimaga yetishish uchun lug'atlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Istalgan yirik lug'atlarda bir so'zning o'rtacha 3-4 ma'nosi beriladi. [2:32]

Ingliz tilining o'ziga xos eng muxim xususiyatlaridan biri undagi tovushlarning miqdori harflarning miqdoriga to'g'ri kelmasligidir. Bir tovush turli harflar bilan ifoda etiladigan so'zlar ko'pchilikni tashqil etadi. Shu tufayli ingliz tilida bekamu-kust talaffuz qilish uchun bir tovushga to'g'ri keladigan harf birikmalarini va talaffuz etilmaydigan harflarni kompleks o'rganish va yoddan bilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuning uchun ingliz tilini puxta o'zlashtirishda shu tildagi bir so'zli terminlarni tarkibiy qismlar (morfemalar)ga ajaratish ancha qulay usullardan biri sanaladi. O'quvchilar bunday amaliy ishlarni maktab va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'zbek tili darslarida xam bajarganlar. So'zlarni asos, qo'shimcha, qo'shimchalarni esa so'z yasovchi va shakl yasovchilarga ajratish bo'yicha o'z ona tilisidan egallangan bilimlar bazasi ingliz tilidagi so'zlarni shu yo'sinda tahlil etish ko'makka keladi. Shu jarayonda o'quvchilar ikki til materialini o'zaro qiyoslaydilar. Bu qiyos esa tilni puxta o'zlashtirish uchun zamin xozirlaydi.

Ingliz va o'zbek tillarining asosiy xususiyatlarini qiyoslash assosida shuni aytish mumkinki, til fanlarini o'qitishda kommunikativ xamda ta'lim-tarbiyaviy vazifalar ustuvor sanaladi, lekin o'zga til oilalariga mansub bo'lgani bois ular bir-biridan ta'lim-tarbiyaviy va kommunikativ maqsadlarning qo'yilishi jihatidan o'zaro farqlanadi.

Kommunikativ maqsad o'quvchilarga axborot olish va yetkazishning yangi vositalarini o'rgatishni ko'zlaydi. Ingliz tilini o'zlashtirish va tarjima qilish jarayonida o'quvchilar, asosan, og'zaki nutqni egallashga harakat qiladilar, bunda albatta, shu tilning fonetik va grammatik qurilishini yaxshi egallashlari talab etiladi va bu maqsadning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun o'zbek tilining fonetikasi va grammatikasi-

dan o'zlashtirilgan bilimlar qo'l keladi.[4:57]

O'quvchilar gapirish va tarjima qilish uchun talaffuzni to'g'ri amalga oshirishda o'zbek va ingliz tillarining fonologiya asosi o'rtasidagi munosabatni aniqlash zarurdir. Ingliz tilining tovush sostavi ustida ishlash va imitasiya usulidan uzluksiz foydalanish hamda artikulyasion qoidalarni amaliy qo'llash talaffuzni ratsional tarzda o'rganishning ajralmas qismidir.

Nima sababdan tarjima dasturi emas, qilingan mukammal tarjima afzalroq? Chunki tillar ko'p ma'nolilikka boy. Muayyan tildagi har bir so'zning birdan ortiq ma'nosi bor, ulardan foydalanish esa vaziyatga bog'liq. Ingliz tilidagi har bir so'zni o'zbek tilidagi varianti bilan oddiygina bog'lab qo'ya olmaymiz. Ma'noning mosligini faqatgina inson ongi seza oladi. Bilamizki kompyuterda bunday qobiliyat yo'q, u faqat so'zning o'zinigina chiqara oladi. Bu inson tarjimasi va tarjima dasturi o'rtasidagi farqdir, to'g'ri tarjimani yuzaga chiqarishda kompyuterlar insonlar bilan musobaqalasha olmasligining yana bir sababidir. Masalan: kompyuterda "than you like to be engaged" – qizcha nima bilan band bo'lishini yoqtirishini so'raganda, tarjima dasturi buni sizga "unashtirilishni xohlayapsiz!" deb tarjima qiladi. "Bored by you" – sizni tashlab ketyapti, deb tarjima qilinadi. Agar qiz bola siz bilan zerikayotganligini aytayotgan bo'lsa, tarjima dasturi, usiz zerikib qolayotganidan tashvishlanayotgan, deb ifodalaydi. [3:42]

Bunday misollarga ko'plab duch kelishimiz mumkin. Yosh tarjimonlar bilan bog'liq bunday muammolarni kamaytirish va tarjimonlar salohiyatini yanada oshirishimiz uchun litsey, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlarda so'zlashish va tarjima qilish amaliyotlariga ko'proq ahamiyat berishimiz kerak bo'ladi

Ana shu maqsadda bitiruvchi kurslarda o'quvchilarning tarjimonlik kasblariga mos keladigan o'quv predmetlari bo'yicha ingliz tili dars soatlarini ko'paytirish; tanlagan sohalar bo'yicha qat'iy malumotlar ingliz tilida tashkil etish va o'tkazish jarayonida o'quvchilarni guruhlariga ajratish; ta'lim maskanlarida o'quvchilar bilan dastlabki kasbiy yo'nalishlardan ma'lumot beruvchi qisqa muddatli kurslar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda ta'lim-tarbiya jarayonining bu tarzda tashkil etilishi va kelajakda ta'lim turlarining xilma-xil bo'lishi bolalarning bo'sh vaqtlarini foydali ishlar bilan band qilish bilan birga ingliz tilini mu-

kammal o'rganishga, shuningdek mukammal tarjimon bo'lishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev. Sh. M „Yoshlarga e'tibor - kelajakka e'tibor “ nutq, 2017
2. Ismatullayeva N.R “Sinxron tarjima masalalari” Toshkent 2013
3. Mo'minov . O : „Simultaneous translation “ T. , 2005
4. V. F. Yengaliyevich, S.S. Rajabov. “Maktab o'quvchilarni oliy o'quv yurti maktabiga moslashtirishda tarbiyaning roli”. – T.: 1983
5. Mirollyubov A.A. “O'rta maktablarda ingliz tillar o'qitishning umumiy metodikasi”:- Toshkent. 1974.

Internet manbalar

1. www.ziyonet.uz
2. www.xs.uz
3. www.tsuull.uz
4. www.uz.wikipedia.org
5. www.samdhti.uz

Hamrayev Ulug'bek,

*Tashkent State University of Uzbek language and literature
1st year master's degree in simultaneous interpreting faculty*

THEORITICAL APPROACHES OF ADEQUACY IN TRANSLATION

Annotation. *This article addresses the issue of the Theoretical approaches of adequacy in translation in Uzbek and English languages. In research also discusses overcoming difficulties of adequacy in translation and types of translations.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillariga tarjimada adekvatlikning nazariy yondashuvlari masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda tarjimadagi adekvatlik uchraydigan qiyinchiliklarini bartaraf etish va tarjima turlari ham muhokama qilinadi.*

KEYWORDS: Translation, translator, Adequate, adequacy, equivalence, Transcreation, Localization, Software,

In the century of Globalization translators who serve to bring peoples closer together have a special place in our world. As the world is developing, their importance also is increasing rapidly. The process of what translator does is translation.

Mamarasulova Maftuna. Allalarda qo'llaniladigan metaforalar – lingvomadaniy birlik sifatida.....	420
Muzaffarov Kamoliddin. “Mahbub ul-qulub” asarida antonimlarning qo'llanilishi	423
Suyunova Dildora. Harbiy matnning lingvistik mohiyati.....	428
Kenjayeva Dildora. “Boburnoma”da zoonimlarning o'rganilishi.....	431
Qudratillo Bakirov. Devoni lug'otit turkda qo'llangan vaqtni ifodalovchi turkiy leksemalarning semantik tadqiqi.....	434
Saidaxmatova Maftuna. O'zbek bolalari nutqida makon deysisining voqelanishi.....	438
Saidmuratova Xurshida. Badiiy matnda ijobiy va salbiy semantikaning uyg'unlashuvi	443

VI BOB

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Abdullayeva Dildora. Alisher Navoiy ijodining ma'rifiy-madaniy hamda tarbiyaviy ahamiyati.....	447
Ahmedova Matluba. O'zbek tilida “o'quv izohligi lug'atchilik” holati.....	451
Badriddinova Umida. Ona tili ta'limida o'qib tushinishga oid lingvodidaktik vositalar xususida.....	455
Hasanova Gulbahor. “Sab'ai sayyor” dostonini o'qitishda o'quv lug'atlaridan foydalanish	460
Charos Egamova. Cho'lponning “kecha va kunduz” romanini muammoli ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish.....	465
Usmonova Umida. Mangu bog'lararo yoxud badiiy adabiyotga ontologik yondashuv	470
Mirvaliyeva Dildora. O'zbek tili ta'limiy korpusining ahamiyati	477
Nishonova Maftuna. 5-Sinf “ona tili” darsligi uchun matn tanlash o'rni va ahamiyati.....	483
Qayumova Ozoda. Maktab o'quvchilarida so'z boyligini aniqlashning psixologik asoslari	490
Sodiqova Gulmira. Uzluksiz ta'limda erkin vohidov ijodining o'rganilishi.....	494
Toshpulatova Dilfuza. Umum ta'lim maktablarida o'quv topshiriqlarining amaliy ahamiyati	497
Xasanboyev Nodirbek. Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi” romanini samarali o'qitish bo'yicha ayrim tavsiyalar	502
Xolmuratova Gulnoza. Korpus asosida bajariladigan mashq va topshiriqlar tizimi	506
Xusenova Nargiza. O'quvchilarda mustaqil ishlash, izlanish ko'nikmalarini skaffolding metodi orqali hosil qiluvchi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish.....	512
Xoligova Ra'no. Maktablarda abdulla qodiriy asarlarini o'qitish muammolari.....	520

VII BOB

TARJIMA MUAMMOLARI

Abduganieva Shohsanam. Yuridik tilning o'ziga xos xususiyatlari	525
Aliqulova Lobar. The importance of lingua cultural aspects in simultaneous interpreting.....	529
Amirqulov Dilshod. Litsey, kasb-hunar maktablari, kollejar va texnikumlarda sinxron tarjimonlar tayyorlash kurslarni tashkil etish dolzarb masala.....	533
Hamrayev Ulug'bek. Theoretical approaches of adequacy in translation	539
Amirkulov Elshod. Ilmiy-publisistik matnlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari	543
Maxamadaminova Shohista. The genesis of simultaneous interpreting	549
Sadaddinov Azimboy. Siyosiy matn tarjimasining nazariy jihatlarini.....	553
Xamirayeva Dilnoza. Filologiyaning o'ziga xos xususiyatlari.....	559
Qadirova Xushnudaxon. The importance of methodological aspects of interpretation.....	563

VIII BOB

FOLKLORSHUNOSLIK VA DIALEKTOLOGIYA MASALALARI

Anorboyeva Maftuna. O'zbek folklorida raqamlar sehri mamatqul jo'rayev tadqiqotlari misolida.....	569
Azimova Madina. O'zbek adabiyotida rivoyat va afsona janrlarining sintez holati	573
Baxramova Maxliyo. Alpomish” dostoning yozilishi va o'rganilishi.....	576
Qodirqulova Durdona “Alpomish” dostonida milliy ruh ifodasi	582
Saydullayeva Aziza. Turk tarixchi olimi bahaeddin o'gel va uning “Turkiy mifologiya” ensiklopediyasi.....	587
Umarova Asila. Folklorizmlarning ahamiyatli jihatlarini va o'rganilishi.....	591
Sobirova Zarnigor. Cho'lpon lirikasida xalqona olqishlar va qarg'ishlarning badiiy talqini.....	593
Xo'jamov Rashid. Asqar Mahkam ijodida jahon she'riyati an'analari	597

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

FILOLOGIYA MASALALARI YOSH
TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA

Muharrir: Nafisa Rustamova
Musahhih: Hilola Jo'raqulova
Sahifalovchi: Akmal Farmonov

“TAMADDUN NASHR” nashriyoti.
100029, Toshkent shahri,
Yunusobod tumani 7- mavze, 7- uy
Tasdiqnoma № 022897 (2022.05.03)

2022.14.04.da bosishga ruxsat etildi Bichimi 60*84 ¹/₁₆.
Cambria garniturası. Shartli bosma tabog'i 35.3.
Nashriyot tabog'i 35. Adadi 60 nusxa.